

**ABDURAUF FITRAT IJODIDA TILSHUNOSLIKKA
OID QARASHLAR TALQINI**

Hakimova Maqsuda Ashirali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadidchilik adabiyotining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat ijodi, ilmiy ishlari shu bilan bir qatorda tilshunoslikka qo'shgan hissasi haqida alohida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: „Sarf”, „Nahv”, to'ldirgichlar, o'zbek tili fonetikasi, sintaksisi, grammatikasi, darsliklar, kirish so'zlar, kirish gap, lingvistika, tinish belgilar.

O'zbek adabiyotining buyuk tarixichisi, filolog, tarjimon yozuvchi dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri Abdurauf Fitratdir. U O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakillaridan biri- birinchi o'zbek professoridir. Turkiyada o'qigan va jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori hisoblanadi. U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o'zlashtiradi. Fitratning ijodini Turkistonda inqilobiy harakatlar kuchaygan ya'ni „Sharq uyg'ongan“ davrlarga to'g'ri kelib qoladi. U ham o'z salaflari kabi avvalo ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Uning „Munozara“ nomli asarida o'z xalqini zulm botqog'idan qutqarib „Najot yo'li“ni izlaganligi seziladi. Fitrat xalqparvarligi va mehnatkashligi bilan ajralib turadi. Bunga misol qilib, u yashab turgan davrida rus tili va rus madaniyatini targ'ib qilish ham Fitrat ma'rifatparvarligi yo'nalishining muhim tarmog'i bo'lган. Bunday qarashlari uning yuksak yutuqlarga erishishiga sababchi bo'ldi. Ya'ni uning o'zi tashkil etgan va muharrirlik qilgan „Hurriyat“ ro'znomasida keng targ'ib etiladi. Xuddi shu yillarda „Hayot yo'lida birinchi masalasidir“ degan shiori bilan chiqdi. Uning „Hurriyat“ ro'znomasida bosilgan „Yurt qayg'usi“ nomli lavhasida Turkiston uchun , uning ayollar ozodligi uchun kurashga bel bog'laganligi aytib o'tiladi. Fitratning „Yashasin turklik , yashasin Islom“ deya shiori bilan o'z qarashlarini olib chiqdi. Shoir ijodida va dunyo qarashida siljish, yangilikka, go'zalikka intilishi seziladi.Yuqorida ta'kidlab o'tgan yirik olim, adabiyotshunos sifatida yaratgan asarlariga isboti bo'la oladi desak

adashmagan bo‘laman. Bunga misol qilib, bir qancha asarlarini olsak bo‘ladi. Jumladan, „Adabiyot qoidalari“ , „Eski o‘zbek adabiyoti namunalari“, „ Aruz haqida“ va shu kabi bir qator ilmiy kuzatuvlar adabiyotshunoslik fani tarixida muhim ro‘l o‘ynaydi. Fitrat ayni chog‘da olim, ulkan pedagog va xalq maorifi tashkilotchisi sifatida ham faol ishlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Fitrat bu bilan to‘xtab qolmaydi. Uning qilgan buyuk ishlaridan yana biri bu tilshunoslikka qo‘shgan hissasi va tilshunoslikka oid qarashlari bo‘ldi. U tilshunos sifatida tilning barcha bo‘limlari haqida o‘z munosabatlarini bayon qilib o‘tgan. U o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o‘zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o‘rnini belgilab berishga harakat qilib ko‘radi. Fitrat adabiy tilning boyishida asosiy manbaa bo‘lib xizmat qiladigan xalq shevalariga diqqatini ko‘proq jalg qilish kerakligini alohida ta‘kidlab o‘tadi. Adabiy tilning shakllantirishda shahar shevalariga emas, balki qishloq shevalariga tayanish kerak ekanligini ta‘kidlaydilar. Bu haqda Fitrat o‘zining „Sarf“ kitobida barchasini yozib, ta‘kidlab o‘tadi. Uning o‘zbek tilining turli masalalariga bag‘ishlangan asari „O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risi bir tajriba“ deb nomlanadi. Bu asar esa o‘zbek tilining fonetikasini, morfologiyasi va sintaksisini izchil ravishda berilgan birinchi grammatikadir. Fitratning birgina „Sarf“ asari tilshunoslikka oid qarashlarini o‘z ichiga olib qolmaydi. Uning yana bir tilshunoslikka o‘z hissasini qo‘shgan „Nahv“ asari ham eng ahamiyatga moliklik asardir. Bu haqda Fitrat sintaktik qarashashlari uning „O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba ya’ni „Nahv“ asarida o‘z aksini topdi. Bu asar haqida muallif: „ O‘zbek nahvi to‘g‘risida mening bir tajribamdir“ -deb yozadi. Hali o‘zbek tili sintaksisining mundarijasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimiga solinmagan bir davrda mazkur asarning vujudga kelishi o‘zbek tilshunoslige tarixi uchun katta voqeaga aylandi. „Nahv“ „butundan qismga“ tamoyiliga amal qiladi. Shuning uchun ham sintaksisning asosiy o‘rganish birligi bo‘lgan gap haqida ma‘lumot berishidan boshlanadi. Gap haqida ma‘lumot bergandan keyin, tinish belgilari to‘g‘risida ham so‘z yuritadi. Muallif punktuatsion belgilarni „turush belgilar“ atamasi bilan nomlaydi. U 12 ta tinish belgisi va ularning vazifalari haqida ma‘lumot beradi. Bundan tashqari Fitrat Gap bo‘laklari haqida ya’ni ega va kesimni Bosh so‘zlar tarkibiga kiritadi. Bosh so‘zlardan boshqa barcha bo‘laklarni „to‘ldirgichlar“ atamasi bilan nomlaydi. To‘ldirgichlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) tushum; 2) borish; 3) chiqish; 4) o‘run; 5) chog‘; 6) nechunlilik; 7) nechuklik . U bilan cheklanib qolmagan holda kirish so‘z va kirish gap va kiritmalar haqida ham ma‘lumot beradi. Bu uch lingvistik hodisa bir termin – kirish so‘z atamasi ostida o‘rganiladi. Kirish so‘zlarning gapning boshqa qismlarida yozuvda vergul bilan ajralishi , kirish so‘zlar gapdan tushirib qoldirilganda ham gapning ma‘nosiga zarar yetmasligi haqida ta‘kidlab o‘tadi. U ko‘rsatib o‘tgan sintaksis haqidagi fikrlar bugungi kunda ham mavjudligini darsliklarda ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tili morfologiyasi va sintaksisning sifatida

shakllanishida Fitratning xizmatlari katta o‘ringa ega bo‘ldi. U tom ma‘noda tilshunos sifatida tilshunoslikning rivojlanishida eng katta hissasini qo‘shdi. Xullas, jadidchilik davrining yirik vakili lingvistik qarashlari, tilshunoslikka bag‘ishlagan asarlari orqali o‘zbek tilshunoslari uchun durdona ijod namunalari qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nuriddinov.A „Fitratning lingvistik qarashlari.
2. Ne’matov H, ahmatov N. „O‘zbek tilining tarixiy leksikografiysi”. Buxoro. 1987.
3. Ne’matov H. „O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi”. T.1992.
4. nauchniyimpuls.ru